

XITOY TILI QUYOSH ENERGIYASI TERMINLARINING TARJIMADA BERILISHI

Karimova X.A

ToshDJTU xitoy tili va nazariyasi kafedrasи o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada muqobil energiya sohalaridan biri gelioenergetika terminlarining tarjimada berilishini ko‘rib chiqamiz. Ma’lumki, muqobil energiya manbalaridan keng foydalanish har bir mamlakatning ustuvor maqsadlari hamda energetika havfsizligi vazifalariga muvofiq keladi va energetika sohasining jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: terminlar, terminlar tarjimasi, muqobil energiya terminlari, quyosh energiyasi terminlari.

TRANSLATION OF CHINESE SOLAR ENERGY TERMS

ABSTRACT

In this article, we will consider the translation of the terms of one of the alternative energy fields, polar energy. It is known that the widespread use of alternative energy sources is in accordance with the priority goals and tasks of energy security of each country and is one of the rapidly developing areas of the energy sector.

Key words: terms, translation of terms, alternative energy terms, solar energy terms.

Termin grekcha terminus so‘zidan olingan bo‘lib, chek-chevara degan ma’noni bildiradi. U fan-texnika, qishloq xo‘jaligi, san’at va madaniyat sohasiga xos so‘z hisoblanadi. Terminologiya - terminlar haqidagi ta’limot va terminlar majmui degan ma’nolarni anglatadi.[5]

Terminologiya deganda, umumadabiy tilning mustaqil funksional turi, ya’ni an’anaviy fan tili (fan, ilm yoki texnika tili) nazarda tutiladi. Fan tili umumadabiy tilning funksional sistemalaridan biri sifatida jonli so‘zlashuv tili va badiiy adabiyot tili tushunchalari bilan bir qatorda turadi. [1]

Termin so‘zi o‘rnida ba’zan atama, istiloh so‘zlarini ishlatalish hollari uchrab turadi. Ammo bu to‘g‘ri emas. Atama termin so‘ziga nisbatan tor tashunchani ifodalaydi. Istiloh so‘zi esa arabchadir. Uni xalq tushunmaydi va meyorga aylangan emas. Terminologiya masalalari hamisha tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri

bo‘lib kelgan. Chunki terminlarning sohalar lug‘aviy qatlamlaridagi o‘rni va vazifasini belgilash, tushunchaning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglash imkonini beradi.

Terminalogiyaning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, umumadabiy tilda sinonimiya, omonimiya va kup ma’nolilik tilning boyligi bo‘lsa, Terminalogiyada bular salbiy hodisa hisoblanadi. Masalan, birgina tushunchani ifodalash uchun o‘zbek tilida yarimo‘tkazgich — chalao‘tkazgich — nimo‘tkazgich terminlari qo‘llanmoqda. Bu, o‘z navbatida, o‘qisho‘qitish va axborot almashish jarayonini qiyinlashtiradi. Shu sababli ham terminalogiyasi ma’lum darajada barqarorlashgan barcha tillarda terminlar doimiy tartibga solib turiladi. Tartibga solish ma’lum terminologik me’yorlar asosida amalga oshiriladi. Terminalogiyaning rivojida fan sohalariga oid maxsus lug‘atlarni nashr qilib turish ham muhim ahamiyatga ega. [5]

Ushbu maqolada muqobil energiya sohalaridan biri gelioenergetika terminlarining tarjimada berilishini ko‘rib chiqamiz. Ma’lumki, muqobil energiya manbalaridan keng foydalanish har bir mamlakatning ustuvor maqsadlari hamda energetika havfsizligi vazifalariga muvofiq keladi va energetika sohasining jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Muqobil energiya manbalari bu gidroenergetika, shamol energiyasi, quyosh energiyasi, geotermal energiya, biomassa va suv oqimi energiyasidan foydalanish orqali olinadigan qayta tiklanadigan energiyadir.

Muqobil energiya manbalarining turlari:

1. Quyosh energiyasi 太阳能 tài yáng néng
2. Shamol energiyasi 风能 fēng néng
3. Suv energiyasi 水能 shuǐ néng
4. Geotermal energiya 地热能 dì rè néng
5. Bioenergiya 生物燃料 shēng wù rán liào
6. Oqim energiyasi 海流能 hǎi liú néng
7. Okean energiyasi 海洋能 hǎi yáng néng (to‘lqin energiyasi 潮汐能 cháo xī néng, harorat farqi energiyasi 温差能 wēn chā néng, tuzlar farqi energiyasi 盐差能 yán chà néng)
8. Biogaz resurslari 沼气资源 zhǎo qì zī yuán

Quyosh Yerdagi asosiy energiya manbayi hisoblanadi, chunki har yili sayyoramizga taxminan 173 PVt (yoki 173 million GVt) quyosh energiyasi tushadi, bu esa global energiyaga bo‘lgan ehtiyojdan 10 ming baravar ko‘proqdir. Uyingizda yoki ochiq joylarda fotovoltaik modullar quyosh nurini kremniy yordamida elektr energiyasiga aylantiradi. Quyosh kollektorlari isitish va issiq suv ishlab chiqarish

uchun ham foydalaniladi. Quyosh panellari bulutli havoda va hatto qor yog‘ishida ham energiya ishlab chiqarishi mumkin. Eng katta samaradorlik uchun ular ma’lum bir burchak ostida o‘rnatilishi kerak – ekvatoridan qanchalik uzoqroq va panellarni o‘rnatish burchagi qanchalik katta ekani ahamiyatga ega. Xitoy o‘n yil ichida qayta tiklanadigan energiya uskunalari bo‘yicha yetakchi ishlab chiqaruvchiga aylandi. Avvalo, biz quyosh panellari haqida gapiramiz. Dunyodagi eng yaxshi 10 ta quyosh batareyasi ishlab chiqaruvchisidan yettiasi Xitoy kompaniyalaridir. Umuman olganda, texnologiyalarning rivojlanishi qayta tiklanadigan energiya manbalarining yangi ob’yektlarini qurish xarajatlarini pasaytirdi. [2]

Quyida gelioenergetika terminlarining o‘zbek tilida tarjimada berilishini ko‘rib chiqamiz:

1. 标准太阳电池 Biāozhǔn tàiyang diàncí - standart quyosh batareyasi. U nurlanishni o‘lchash yoki standart quyosh spektrining nurlanishiga asoslangan quyosh simulyatori nurlanishing fotovoltaik qurilmasini sozlash uchun ishlatiladi.

2. 入射角 Rùshè jiǎo - tushish burchagi. Tushish burchagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushayotgan nur va qabul qiluvchi yuzaning orasidagi burchakdir.

3. 光伏反应 Guāngfú fǎnyìng - fotovoltaik reaksiya. Fotovoltaik reaksiya nurlanish energiyasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri elektr energiyasiga aylantiradi.

4. 转换效率 Zhuǎnhuàn xiàolǜ - konversiya samaradorligi. Konversiya samaradorligi - bu ishlab chiqarilgan maksimal elektr quvvatining belgilangan sinov sharoitida o‘lchanan nurlanish mahsulotiga va generatorning maydoniga nisbati.

5. 光谱响应 Guāngpǔ xiǎngyìng - spektral reaksiya. Spektral reaksiya - muayyan to‘lqin uzunligida birlik nurlanishi natijasida hosil bo‘lgan qisqa tutashuvli oqim zichligi to‘lqin uzunligi funksiyasi sifatida ifodalananadi.

6. 辐照度 Fú zhào dù – radioaktivlik. Nurlanish - birlik yuzasiga tushadigan nurlanish kuchi (Vt/sm²)

7. 组件 (太阳电池组件) Zǔjiàn (tàiyang diàncí zǔjiàn) - Modullar (Quyosh batareyasi modullari). Quyosh batareyasi moduli faqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri oqim chiqishini ta’minlaydigan qadoqlash va ichki ulanishga ega bo‘lgan eng kichik bo‘linmaydigan quyosh batareyasi kombinatsiyasi qurilmasiga ishora qiladi.

8. 辐射 Fúshè – radiatsiya. Bu energiyani elektromagnit to‘lqinlar yoki zarrachalar (fotonlar) shaklida tarqatish jarayoni.

9. 辐射光谱 Fúshè guāngpǔ - radiatsiya spektri. Bu nurlanish energiyasining monoxromatik komponentlarga parchalanishida energiya taqsimoti.

10. 直流/交流电压变换器（逆变器）Zhíliú/jiāoliú diànyā biàn huàn qì (nì biàn qì) - DC/AC kuchlanish konvertori (inverter). DC / AC konvertori (inverter) to‘g‘ridan-to‘g‘ri oqimni o‘zgaruvchan tokga aylantiradigan qurilmaga ishora qiladi.

11. 大气质量 Dàqì zhí liàng - havo massasi. Bu quyosh nurlari orqali o‘tadigan havo massasidir.

12. 暗电流 Àn diànniú - qorong‘u oqim. Yorug‘lik intensivligi sharoitida qorong‘u oqim akkumulyator ichidagi fototokning yo‘nalishiga qarama-qarshi bo‘lgan musbat ulanish oqimidan hosil bo‘ladi.

13. 光生电流（光电流）Guāngshēng diànniú (guāng diànniú) - Fotogeneratsiyalangan oqim (fototok). Bu quyosh xujayrasi yoritilganda foto-hosil qilingan tashuvchilarining harakati natijasida hosil bo‘lgan oqim.

14. 光生电压 Guāngshēng – Fotovoltaik. Fotovoltaik quyosh hujayrasi yorug‘lik energiyasini o‘zlashtirgandan so‘ng, mos ravishda hujayraning o‘rnatilgan elektr maydonining har ikki tomonida teshiklar va elektronlar to‘planishi natijasida hosil bo‘lgan kuchlanish.

15. 太阳电池的伏安特性曲线 Tàiyáng diàncí de fú ān tèxìng qǔ xiàn - Quyosh batareyasining volt-amper xarakterli egri chizig‘i. Quyosh batareyasining volt-amper xarakterli egri chizig‘i - bu yorug‘lik intensivligiga duchor bo‘lgan quyosh batareyasi uchun ma’lum bir nurlanish va harorat va turli xil tashqi kontaktlarning zanglashiga olib keladigan yuklari ostida yukga tushadigan I oqim va batareyaning har ikki uchidagi kuchlanish V o‘rtasidagi bog‘liqlik. [3]

Tadqiqot davomida rus tilida quyosh energiyasiga oid 48ta termin topildi [6]. Xitoy tilida esa quyosh energiyasiga oid 53 ta termin ko‘rib chiqildi [4].

Terminlarning yildan yilga o‘zgarishi va yangi terminlarning paydo bo‘lishi fan va texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqidir. Tabiiy holda fan-texnika taraqqiyoti keng miqyosda yoyilayotganligi bois turli soha mutaxasislarining shu soha yutuqlaridan keng foydalanishi sababli terminlarga bo‘lgan e’tibor ortmoqda va yangi terminlar paydo bo‘lmoqda. Terminalogik nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak ham boshqa sohalarga nisbatan fan-texnikaga doir terminlar ko‘p va keng miqyosda foydalaniladi. [2]

Boshqa xorijiy tillardagi turli sohalarga doir ilmiy matnlarni ya’ni terminlari mavjud bo‘lgan matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yoki aksincha bo‘lganda turli xil muommolar paydo bo‘ladi. Ilk muommo va ayni paytda katta masalalardan biri qaysi tildan tarjima qilayotgan bo‘lsangiz o‘sha matndagi terminning ma’nosiga mos terminni narigi tildan tarjima qilishda topib bo‘lmay qoladi. Bu katta

qiyinchilik tug‘diradi. Bundan avval kichik bir masalaga to‘xtalib o‘tsam, o‘zbek tiliga boshqa tillardan (mn:ingliz tili) ilmiy ishlar tarjima qilinayotganda duch kelinayotgan terminlarni tarjima qilish uchun o‘zbek tilida yaratilgan sohaviy terminlarga oid qo‘llanmalar mavjud emas, bo‘lsa ham to‘liq emas, bu esa tarjimon va til o‘rganuvchilari uchun terminlarni tarjima qilishda katta muommolarga sabab bo‘ladi. O‘ylashimcha, yuqoridagi masalalar orqali bu uchinchi muommo paydo bo‘lmoqda, bu muommo shuki, o‘zga tildan termin tarjima qilinayotganda bizning tilimizda o‘sha so‘zga mosi topilmagandan so‘ng o‘sha chet so‘zni o‘z holicha (kalka) qabul qilishmoqda va o‘sha so‘zni tarjimasi orqali bizni tilda ko‘radigan bo‘lsak noto‘g‘ri ma’no bermoqda. Bu ham katta xato deb aytolamiz. Hozircha terminlarga oid bu masalalar yechilganicha yo‘q ammo, shunday muommolar mavjud ekan izlanish, o‘rganish va bu masalalarni hal qilishga harakat qilish lozim.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, fan-texnika va barcha sohalar rivojlanar ekan terminlar ham ko‘payadi va yangi terminlar vujudga keladi. Bu albatta yaxshi, ammo terminlarni vaqt - vaqt bilan saralab, tartiblab borish lozim. Shu bilan birga biz terminlar tarjimasi jarayonida vujudga kelayotgan muommolarni bartaraf etish uchun doimo o‘rganish va harakatda bo‘lishimiz lozim. Shundagina terminologiya rivojiga oz bo‘lsa ham, o‘z xissamizni qo‘shgan bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *Даниленко В.П. Лексико-семантические и грамматические особенности слов-терминов. Исследования по русской терминологии. М. 1977.– С.8-12*
2. *Geldiyeva X. Abjalova M./Terminlarni tarjima qilish masalalari// “KOMPYUTER LINGVISTIKASI: MUAMMOLAR, YECHIM, ISTIQBOLLAR” Respublika I ilmiy-texnikaviy konferensiya// №. 01 (2021)*
3. *<https://xabardor.uz/uz/post/muqobil-energiya-manbalari-nima-va-ularning-kelajagi-bormi>*
4. *https://solar.ofweek.com/2013-08/ART-260008-11001-28716340_2.html*
5. *<https://fayllar.org/mavzu-terminlarning-yasalishi-va-terminologik-lugatlar.html?page=4>*
6. *<http://www.solbat.su/enciklopediya/glossary/>*